



XODIMNI MUNTAZAM RAVISHDA “KASALLIK VARAQASI”DA BO‘LISHI MEHNAT SHARTNOMASINI BEKOR QILISHGA ASOS BO‘LADIMI

S.Xamdamova

Toshkent davlat agrar universiteti
Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi
boshlig‘i

Tel.: +998999829988

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18975288>

Annotatsiya: Kasallik va shikastlanganlik bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasi mehnatga layoqatsiz shaxs murojaat qilgan yoxud davolangan davolash-profilaktika muassasasi tomonidan mehnatga layoqatsizlik aniqlangan kundan boshlab berilishi, shuningdek xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish taqiqlanishi yuzasidan ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mehnatga layoqatsizlik varaqasi, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga (TIEK), mehnatga layoqatsizlik varaqasi berish muddatlari (uzlukli va uzluksiz).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko‘ra, har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli.

Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta‘minlash choralari ko‘radi – deb belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli, ya‘ni bu - barcha fuqarolar aniq va bir xilda qonun bilan tartibga solingan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmidan foydalanishi mumkin bo‘lgan qoidani o‘z ichiga oladi.

Xodim kasal bo‘lib mehnatga qobiliyatsizlik varaqasini ochtirishi va bu davrda ishdan ozod qilinib, o‘z salomatligini tiklab olishi mumkin. Bu esa uning mutlaq huquqi hisoblanadi.

Mehnatga layoqatsizlik varaqasi shaxsni ishdan ozod qilish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi yoki homiladorlik va tug‘ish nafaqasi to‘lash uchun asos bo‘ladigan hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan kechadigan kasallanishning hisobi yuritiladigan hujjat hisoblanadi.





ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Fuqarolarning kasalligi, shikastlanganligi, homiladorligi, tuqqanligi, oilaning betob a'zosini parvarishlaganligi, protez qo'ydirganligi, sanatoriy-kurortda davolanganligi, shuningdek sog'lig'i holatiga ko'ra boshqa ishga o'tkazish uchun va karantin tufayli mehnatga vaqtincha layoqatsizligini ekspertiza qilish natijalariga ko'ra aniqlangan mehnatga vaqtincha layoqatsizligi mehnatga layoqatsizlik varaqasi bilan tasdiqlanadi.

Shuningdek, 2667-sonli "Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 9-bandiga ko'ra, kasallik va shikastlanganlik bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqalari mehnatga layoqatsiz shaxs murojaat qilgan yoxud davolangan davolash-profilaktika muassasasi tomonidan mehnatga layoqatsizlik aniqlangan kundan boshlab beriladi.

Ambulatoriya sharoitida davolanishda davolovchi shifokor yakka o'zi **5 kalendar kunigacha** "kasallik varaqasi" berishga haqli. Keyinchalik uning muddati davolovchi shifokor va bo'lim mudiri tomonidan **har safar 10 kalendar kundan ortiq bo'lmagan** muddatga uzaytiriladi Biroq bu byulletenni cheksiz uzaytirish mumkinligini anglatmaydi. Muayyan muddatlardan keyin bemor tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga (TIEK) yuboriladi.

Bemor TIEKga yuborilganda mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasining muddati bemor TIEKga yuborilgan kundan boshlab to'xtatiladi. Mazkur bemorlar hujjatlari TIEKda qabul qilingan kundan boshlab yigirma kalendar kun muddat ichida tibbiy ko'rik o'tkaziladi.

TIEK tomonidan nogironlik belgilanmagan, lekin vaqtincha mehnatga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning mehnatga layoqatsizlik varaqasi davolash-profilaktika muassasasi tomonidan bemorning hujjatlari TIEKda qabul qilingan kundan boshlab uning mehnat qobiliyati tiklangunga qadar, ammo ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytiriladi.

Bundan tashqari, agar xodim TIEKga yuborilgan bo'lsa, xulosani olib va tavsiya berilgan qismini diqqat bilan o'rganiladi. Bunda, tashkilotda xodimga egallab turgan lavozimi, kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha ishlarni bajarishiga **qarshi ko'rsatma** mavjud bo'lsa yoki mehnat jamoasi a'zolari yoxud ular xizmat ko'rsatayotgan fuqarolar uchun xavfli bo'lsa, bu – Mehnat kodeksining 161-moddasi 2-qismi 3-bandiga binoan ish beruvchi tomonidan– "xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi" ishdan bo'shatish uchun asos sifatida ko'rilishi mumkin. Biroq "Sog'lig'i holatiga ko'ra" ishdan bo'shatishdan oldin, ish beruvchi xodimga tibbiy tavsiyaga muvofiq u bajara oladigan ishni taklif qilishi



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

shart. Mehnat kodeksi 144-moddasining oltinchi qismiga binoan, agar ish beruvchida ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda uni o'tkazish mumkin bo'lgan doimiy xususiyatga ega ish mavjud bo'lmasa, biroq, muddatli mehnat shartnomasi bo'yicha bajarilishi mumkin bo'lgan ish mavjud bo'lsa, ish beruvchi xodimga shunday ishga o'tishni taklif etishi shart. Bunday holda xodimni muddatli mehnat shartnomasi bo'yicha boshqa ishga o'tkazish amalga oshiriladi. Shuningdek, Mehnat shartnomasini 144-moddasining ikkinchi qismida sanab o'tilgan asoslarga ko'ra bekor qilishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

xodim ushbu moddaning birinchi — beshinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda ish beruvchi taklif etgan boshqa ishga o'tishni rad etganda;

ish beruvchida bo'sh (vakant) o'rinlar yoki xodim sog'lig'i holati bo'yicha qarshi ko'rsatma bo'lmagan ish mavjud bo'lmaganda;

xodim ushbu ishni bajarish uchun zarur bo'lgan malaka talablariga muvofiq emasligi sababli uni boshqa ishga o'tkazish mumkin bo'lmaganda.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-sentabrdagi 9-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2667-4, 08.10.2025-y.) bilan 22-band quyidagi tahrirda bayon etildi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari to'g'risidagi nizomning 11-ilovasidagi Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalariga yo'llashdan oldin davolanish lozim bo'lgan muddatlar, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro'yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni elektron belgilash mezonlari asosida bemor tegishli tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga (bundan buyon matnda TIEK deb yuritiladi) yuboriladi.

Nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan shaxslar, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek noxush klinik prognozli bemorlar yuqoridagi Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalariga yo'llashdan oldin davolanish lozim bo'lgan muddatlar, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro'yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni elektron belgilash mezonlarida ko'rsatib o'tilgan muddatlar o'tmasdan turib ham tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga yuborilishi mumkin. Ushbu shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishga qabul qilish to'g'risidagi qaror TIEK raisi tomonidan qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 16-sentabrdagi 587-son "Nogironlikni belgilash tizimi raqamlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga





ITALY



ITALY

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori bilan fuqarolarni TIEKga yo'llashdan oldin davolanish lozim bo'lgan muddatlar, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro'yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni belgilash mezonlarini raqamlashtirish tasdiqlandi. Mazkur ro'yxatda har bir kasallik bo'yicha davolanish lozim bo'lgan muddatlar ya'ni mehnatga layoqatsizlik varaqasi berish mumkin bo'lgan muddatlar ko'rsatilgan.

Bu hujjatda aksariyat kasalliklar (og'ir darajadagi kasalliklardan tashqari) mehnatga layoqatsizlik varaqasi berish muddati uzluksiz (ishga chiqmasdan) bo'lganda 120 kun (4 oy), uzlukli (ma'lum vaqtga ishga chiqib) bo'lganda 180 kun (6 oy) etib belgilangan.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 163-moddasiga ko'ra, xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lsa, uni ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatish mumkin emas.

Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 17 aprelda 2667-son bilan davlat ro'yhatidan o'tkazilgan "Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 9-bandiga ko'ra, mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor shifokor tomonidan shaxsan ko'rikdan o'tkazilib, tegishli tashxis qo'yilgandan so'ng berilishi mumkin.

Yuqoridagi 2667-sonli "Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 62-bandiga asosan mehnatga layoqatsizlik varaqasini berilishi ustidan yuqori turuvchi tashkilotga yoki sudga shikoyat qilish mumkinligi belgilangan.

Shunga ko'ra, agar ish beruvchi tomonida kasallik varaqasi ochtirishda qonunbuzarlik bo'lgan degan fikrda bo'lsa, bu bo'yicha hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalariga, Sog'liqni saqlash vazirligiga yoki to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat kiritish mumkin.

Foydalanilgani adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Mehnat kodeksi <https://lex.uz/docs/6257288#6261566>
3. Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 16 sentabrdagi "Nogironlikni belgilash tizimi raqamlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 587-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/7730821>
4. O'zbekiston Respublikasining Oliy Sud Plenumining 2023-yil





SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



5. 20-noyabrdagi “Sudlar tomonidan mehnat shartnomasini bekor qilishni tartibga soluvchi qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi 26-sonli qarori <https://lex.uz/docs/6684613>
6. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2015 yil
7. 20 martdagi 25-son buyrug‘i <https://lex.uz/docs/2625878>
8. <https://kadrovik.uz/uz/publish/doc/text200918>

